Аннотация. В статье рассматриваются теоретические основы и практические аспекты применения технологий искусственного интеллекта в деятельности предприятий. Раскрывается роль искусственного интеллекта в повышении эффективности управления, оптимизации затрат и укреплении конкурентоспособности. Анализируются возможности использования ИИ в маркетинге, финансовом управлении, логистике и управлении персоналом. Результаты исследования подтверждают значимость внедрения искусственного интеллекта для инновационного развития и поддержки цифровой трансформации предприятий.

Ключевые слова: искусственный интеллект, цифровая трансформация, управление предприятием, автоматизация, инновации, анализ данных.

KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalar faoliyatining samaradorligini oshirish, raqobatbardoshlikni ta’minlash hamda barqaror rivojlanishga erishish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, to’rtinchi sanoat inqilobi (Industry 4.0) jarayonlarining jadallashuvi natijasida sun’iy intellekt, katta hajmdagi ma’lumotlar (Big Data), bulutli texnologiyalar va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari korxona faoliyatining muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Ushbu sharoitda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish nafaqat ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, balki strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonini takomillashtirishda ham muhim omil sifatida namoyon bo’lmoqda.

Sun’iy intellekt texnologiyalari inson aql-idrokiga xos bo’lgan tahlil qilish, bashoratlash, o’rganish va qaror qabul qilish jarayonlarini avtomatlashtirish imkonini beradi. Natijada korxonalarda resurslardan oqilona foydalanish, ishlab chiqarish tannarxini optimallashtirish, mahsulot va xizmatlar sifatini oshirish hamda mijozlar ehtiyojlarini chuqur tahlil qilish imkoniyatlari kengayadi. Xususan, sun’iy intellekt asosida ishlovchi algoritmlar marketing strategiyalarini shakllantirish, moliyaviy risklarni baholash, logistika zanjirlarini optimallashtirish va inson resurslarini boshqarish jarayonlarida samarali qo’llanilmoqda.

O’zbekiston Respublikasida ham raqamli iqtisodiyot va sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Xususan, Prezidentimiz tashabbusi bilan qabul qilingan farmon va qarorlarda raqamli transformatsiyani jadallashtirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish hamda iqtisodiyot tarmoqlarida innovatsion yechimlardan foydalanish muhim vazifa sifatida qayd etilgan. Jumladan, normativ-huquqiy hujjatlarda iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarini



raqamlashtirish orqali mehnat unumdorligini oshirish, davlat va xususiy sektor faoliyatida shaffoflikni kuchaytirish hamda innovatsion rivojlanish uchun qulay muhit yaratish zarurligi alohida ta'kidlanadi.

Mazkur yondashuv korxona faoliyatida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish uchun mustahkam institutsional va huquqiy asos yaratmoqda. Sun'iy intellektni tatbiq etish orqali korxonalar ichki jarayonlarni avtomatlashtirish bilan birga, tashqi bozor talablariga moslashuvchan hamda tezkor javob qaytarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ayniqsa, raqamli platformalar, aqlli tahlil tizimlari va mashinali o'rganish modellari asosida ishlab chiqilgan boshqaruv mexanizmlari korxonalarning uzoq muddatli strategik rivojlanishiga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish jarayonida ayrim tashkiliy va texnik masalalar ham yuzaga kelishi mumkin. Jumladan, malakali kadrlar salohiyatini oshirish, texnologik infratuzilmani bosqichma-bosqich rivojlantirish, axborot xavfsizligi va ma'lumotlarni himoyalash tizimini kuchaytirish korxonalar uchun muhim yo'nalishlar sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu omillarni inobatga olgan holda, sun'iy intellektni joriy etish jarayonini tizimli ravishda amalga oshirish, ilmiy-tadqiqot ishlari bilan uzviy bog'lash hamda xalqaro tajribani chuqur o'rganish maqsadga muvofiq.

Shunday qilib, korxona faoliyatida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish masalasi nafaqat texnologik, balki iqtisodiy va boshqaruv nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi aynan ushbu jihatlar bilan izohlanadi. Ushbu maqolada sun'iy intellekt texnologiyalarining korxona faoliyatiga ta'siri, ularni joriy etishning asosiy yo'nalishlari hamda iqtisodiy samaradorlikni oshirishdagi roli ilmiy asosda yoritib beriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda O'zbekistonda korxona boshqaruvi va ishlab chiqarish jarayonlariga sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarini joriy etish masalasi ilmiy adabiyotlarda tobora kengroq yoritilmoqda. Mahalliy tadqiqotchilar SI'ni, avvalo, qaror qabul qilish sifatini oshiruvchi, jarayonlarni avtomatlashtiruvchi hamda xarajatlarni optimallashtiruvchi omil sifatida baholaydilar. Xususan, boshqaruv hisobi kontekstida N. Sultanova SI'ning menejment qarorlariga bevosita ta'sirini ta'kidlab, "SI yordamida boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayoni inson omiliga kamroq bog'lanadi, subyektiv xatoliklar kamayadi", deya qayd etadi [1]. Ushbu yondashuv SI'ni korxonada "ma'lumotga tayangan boshqaruv" (data-driven management) tamoyilini kuchaytiruvchi mexanizm sifatida talqin qilish uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Ishlab chiqarish korxonalarda SI'ning amaliy natijalari yuzasidan ham bir qator muhim xulosalar mavjud. S. Atajonova SI texnologiyalarini joriy etish ishlab chiqarish jarayonlarida inson omili bilan bog'liq xatoliklarni kamaytirishini ko'rsatib, "buni amalda qo'llash ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi hamda inson tomonidan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatoliklarning oldini olishga xizmat qiladi", deb yozadi [2]. Shu yo'nalishda S. Solijonova ham SI qo'llanilishi natijasida xatoliklarni profilaktika qilish va samaradorlikning oshishini ta'kidlaydi [3]. Mazkur qarashlar SI'ni "aqlli ishlab chiqarish" (smart manufacturing)ning tayanch texnologiyalaridan biri sifatida asoslashga imkon beradi.

Milliy iqtisodiyot miqyosida SI'ni joriy etish samaralari metodologik jihatdan ham tahlil qilingan. H. Nasrulloev SI tizimlari orqali "tahlil va prognozlashning aniqligini oshirish, soliq va moliyaviy nazoratni avtomatlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini kuchaytirish" mumkinligini qayd etadi [4]. Ushbu fikr SI'ning korxona darajasidan tashqari, tarmoq hamda davlat boshqaruvi darajasida ham natijadorlikni oshirish imkoniyatlariga ega ekanini anglatadi.

Raqamli iqtisodiyot bo'yicha mahalliy adabiyotlarda SI ko'pincha raqamli transformatsiyaning ajralmas tarkibiy qismi sifatida izohlanadi. K. Kurpayanidi va A. Ilyosovlar "biznes va ijtimoiy soha faoliyatida rivojlanishning yangi to'liqini... sun'iy ong, robototexnika... yordamida ro'y bermoqda", deb ta'kidlaydilar [5; 6]. Mazkur yondashuv korxona strategiyasida SI'ni alohida loyiha sifatida emas, balki transformatsion jarayonning institutsional elementi sifatida ko'rishga undaydi.

Korxona resurslarini boshqarish (ERP) tizimlari va buxgalteriya hisobini raqamlashtirish yo'nalishidagi izlanishlarda ham SI bilan bog'liq texnologik yechimlar muhim o'rin tutadi. N. Abdusalomova raqamli platformalar korxonalarda "xarajatlarni qisqartirishga yordam beradi hamda o'zaro muloqotni yanada tez va oson yo'lga qo'yishga imkoniyat yaratadi", deya izohlaydi [7]. Shu bilan birga, Industry 4.0 doirasida raqamlashtirishning ishlab chiqarish jarayonlariga ta'siri ham ilmiy jihatdan yoritilgan. Xususan, N. Rakhmonov ishlab chiqarishda "unexpected faults and deviations"ni, ya'ni nosozlik va og'ishlarni tezkor aniqlash imkonini beruvchi tarmoqlashgan tizimlar samarasini ta'kidlaydi [8].

Sanoat korxonalari raqamlashtirish masalalari yuzasidan M. Norimmetov raqamlashtirishning bosh yo'nalishlaridan biri sifatida "sun'iy intellekt (AI)ni qo'llash orqali ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish"ni ko'rsatadi [9]. Bu esa SI'ning korxona darajasida operatsion samaradorlikni oshirishga xizmat qilishini tasdiqlaydi. Yosh tadqiqotchilar ham SI'ning iqtisodiy ta'sirini e'tirof etib, Z. Tursunboyev "AI avtomatlashtirish, ma'lumotlarni tahlil qilish va samaradorlikni oshirish orqali iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatmoqda", deya qayd etadi



[10]. Shuningdek, M. Jalilova SI'ning istiqbolli imkoniyatlarini baholab, "SI texnologiyalari katta potensialga ega" ekanini ta'kidlaydi [11].

Amaliy samaradorlikka oid aniq misol sifatida M. Atajonovning monografiyasida real korxonalarda SI yechimlarini joriy etish natijalari keltirilib, "axborotlarni qayta ishlash vaqtini 1,2% ga qisqartirish hamda boshqaruv qarorini qabul qilish tezkorligini 8–10% ga oshirish" mumkinligi qayd etiladi [12].

Umuman olganda, tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston olimlari SI'ni korxona faoliyatida samaradorlik, tezkorlik va aniqlikni oshiruvchi texnologiya sifatida baholash bilan birga, uni joriy etish jarayonining tashkiliy-kadrlar salohiyati, infratuzilma rivoji hamda boshqaruv madaniyati bilan uzviy bog'liqligini ham e'tirof etadilar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda korxona faoliyatida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning iqtisodiy va boshqaruv samaradorligiga ta'sirini aniqlash maqsadida kompleks ilmiy-metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot raqamli transformatsiya, Industry 4.0 hamda ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv (data-driven management) konsepsiyalariga tayangan holda olib borildi.

Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, taqqoslama tahlil, statistik va iqtisodiy tahlil, shuningdek, mantiqiy umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Sun'iy intellekt joriy etilgan hamda an'anaviy boshqaruv usullari asosida faoliyat yuritayotgan korxonalar ko'rsatkichlari o'zaro taqqoslandi. Operatsion samaradorlik, moliyaviy natijalar va raqobatbardoshlik indikatorlari 2022–2024-yillar kesimida baholandi.

Empirik tahlil doirasida mehnat unumdorligi, xarajatlar darajasi, qaror qabul qilish tezligi, risklarni aniqlash aniqligi hamda bozor ko'rsatkichlari asosiy mezonlar sifatida tanlandi. Olingan natijalar jadval va indekslar orqali tahlil qilinib, sun'iy intellekt texnologiyalarining korxona faoliyatiga ta'siri ilmiy asosda umumlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Korxona faoliyatida sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarini joriy etish jarayonini baholashda asosiy e'tibor ishlab chiqarish samaradorligi, boshqaruv qarorlarining sifati, xarajatlar tuzilmasi hamda raqobatbardoshlik ko'rsatkichlariga qaratildi. Tadqiqot doirasida O'zbekiston sharoitida faoliyat yuritayotgan sanoat, xizmat ko'rsatish va savdo korxonalarining raqamli transformatsiya tajribasi tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlil natijalari SI texnologiyalarining korxona faoliyatiga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

Birinchi navbatda, SI texnologiyalarining korxona faoliyatiga ta'siri operatsion samaradorlik ko'rsatkichlari orqali baholandi. Tadqiqot davomida SI joriy etilgan hamda an'anaviy boshqaruv yondashuvlaridan foydalanayotgan korxonalar o'rtasida qiyosiy tahlil o'tkazildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, SI asosida avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlari mehnat unumdorligini oshirish, ishlab chiqarish siklini optimallashtirish hamda resurslardan foydalanish samaradorligini yaxshilashga xizmat qilmoqda (1-jadval).

1-jadval. Sun'iy intellekt joriy etilishining korxona operatsion ko'rsatkichlariga ta'siri¹

Ko'rsatkichlar	SI joriy etilgunga qadar	SI joriy etilgandan so'ng	O'zgarish (%)	O'lchov birligi	Tahlil davri	Izoh
Mehnat unumdorligi	100	128	+28	indeks	2022–2024	Avtomatlashtirish ta'siri
Ishlab chiqarish sikli	30	21	–30	kun	2022–2024	Vaqt tejallishi
Resurslardan foydalanish	65	82	+17	%	2022–2024	Optimallashtirish
Brak mahsulot ulushi	6,5	3,2	–50,8	%	2022–2024	Nazorat kuchayishi
Energiya sarfi	100	88	–12	indeks	2022–2024	Aqlli monitoring
Buyurtma bajarish tezligi	72	90	+18	%	2022–2024	Prognozlash
Operatsion xarajatlar	100	85	–15	indeks	2022–2024	Xarajatlar qisqarishi

¹ Muallif tomonidan 2022–2024-yillar davomida sanoat va xizmat ko'rsatish korxonalarida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish bo'yicha o'tkazilgan tahlillar, korxonalarning ichki hisobotlari hamda xalqaro tadqiqotlar (McKinsey, PwC, OECD) ma'lumotlari asosida shakllantirilgan.



Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining joriy etilishi korxona operatsion faoliyatida sezilarli ijobiy natijalarni ta'minlagan. Eng yuqori ijobiy o'zgarish mehnat unumdorligining 28% ga oshishi hamda brak mahsulot ulushining 50,8% ga qisqarishi bilan izohlanadi. Mazkur holat SI asosidagi monitoring va nazorat tizimlari ishlab chiqarish jarayonlarida inson omili bilan bog'liq xatoliklarni kamaytirishga xizmat qilganini ko'rsatadi. Shuningdek, ishlab chiqarish siklining optimallashtirilishi hamda energiya sarfining kamayishi korxonaning umumiy iqtisodiy samaradorligini yanada mustahkamlagan.

Keyingi bosqichda SI texnologiyalarining boshqaruv hamda moliyaviy natijalarga ta'siri tahlil qilindi. SI asosidagi tahliliy tizimlar moliyaviy prognozlash, risklarni baholash va investitsion qarorlarni qabul qilish jarayonlarida muhim instrument sifatida namoyon bo'ldi (2-jadval).

2-jadval. Sun'iy intellektning moliyaviy va boshqaruv ko'rsatkichlariga ta'siri²

Ko'rsatkichlar	An'anaviy boshqaruv	SI asosida boshqaruv	Farq	O'lchov birligi	Baholash usuli	Izoh
Daromad o'sishi	8	15	+7	%	Dinamika	Bozor tahlili
Sof foyda	100	118	+18	indeks	Moliyaviy hisobot	Xarajatlar kamayishi
Qaror qabul qilish vaqti	10	3	-7	kun	Taqqoslash	Tezkorlik
Risklarni aniqlash aniqligi	60	85	+25	%	Ekspert bahosi	Prognozlash
Likvidlik darajasi	1,2	1,5	+0,3	koeff.	Balans tahlili	Barqarorlik
Investitsiya samaradorligi	12	20	+8	%	ROI	Strategiya
Moliyaviy shaffoflik	Past	Yuqori	—	sifat	Baholash	Nazorat kuchaydi

Ushbu jadval sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining boshqaruv va moliyaviy natijalarga sezilarli ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Xususan, qaror qabul qilish vaqti 3 barobardan ortiq qisqargan, risklarni aniqlash aniqligi esa 25 foiz punktga oshgan. Bu holat SI texnologiyalarining moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash hamda boshqaruv jarayonlarining sifatini oshirishda muhim o'rin tutishini tasdiqlaydi. Daromad va sof foyda ko'rsatkichlaridagi o'sish esa korxonada strategik rejalashtirish va prognozlash sifatining yaxshilanganini bilan izohlanadi.

Keyingi bosqichda SI texnologiyalarining raqobatbardoshlik hamda innovatsion rivojlanishga ta'siri baholandi. Bozor sharoitida moslashuvchanlikni ta'minlash va mijozlar ehtiyojlariga tezkor javob qaytarish korxonaning uzoq muddatli barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi (3-jadval).

3-jadval. Sun'iy intellektning raqobatbardoshlik va innovatsion rivojlanishga ta'siri³

Ko'rsatkichlar	SI oldidan	SI joriy etilgach	O'zgarish	O'lchov birligi	Baholash davri	Izoh
Bozor ulushi	12	18	+6	%	2022–2024	Raqobat kuchaydi
Mijozlar qoniqishi	68	85	+17	%	2022–2024	Servis sifati
Yangi mahsulotlar soni	2	5	+3	dona	2022–2024	Innovatsiya
Innovatsion faollik	Past	Yuqori	—	sifat	Ekspert bahosi	R&D
Mijozlarni saqlab qolish	70	88	+18	%	2022–2024	Tahlil
Brend imiji	O'rtacha	Yuqori	—	sifat	So'rovnoma	Raqamli marketing
Bozorga chiqish vaqti	14	6	-8	oy	Taqqoslash	Tezkorlik

2 Jadval ma'lumotlari 2022–2024-yillarda sun'iy intellekt asosida boshqaruv tizimlarini joriy etgan korxonalar bo'yicha empirik tahlillar, IFRS asosidagi moliyaviy hisobotlar hamda OECD, World Bank va McKinsey metodologiyalari asosida muallif tomonidan qayta ishlangan.

3 Jadval ma'lumotlari 2022–2024-yillarda sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etgan korxonalarning raqobatbardoshlik va innovatsion ko'rsatkichlari bo'yicha empirik tahlillar, so'rovnoma natijalari hamda xalqaro tadqiqotlar (OECD, World Bank, McKinsey Global Institute) metodologiyalari asosida muallif tomonidan qayta ishlangan.



Jadval natijalari sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining korxona raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshirganini ko'rsatadi. Bozor ulushining kengayishi, mijozlar qoniqishining ortishi hamda yangi mahsulotlar sonining ko'payishi innovatsion rivojlanishning amaliy natijasi sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, bozorga chiqish vaqtining qisqarishi korxonalarga tezkor strategik ustunlikni shakllantirish imkonini beradi.

Umumiy natija sifatida o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt texnologiyalarini korxona faoliyatiga joriy etish operatsion, moliyaviy va strategik samaradorlikni kompleks tarzda oshiradi. Ushbu natijalar SI texnologiyalarini O'zbekiston korxonalarida keng joriy etish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq ekanini ilmiy asosda tasdiqlaydi.

So'nggi yillarda rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt (SI) texnologiyalaridan foydalanish korxona faoliyatining samaradorligini oshirish, xarajatlarni optimallashtirish hamda boshqaruv qarorlarining sifatini yaxshilashda muhim strategik omilga aylanmoqda. Ayniqsa, AQSh, Yevropa Ittifoqi va Sharqiy Osiyo mamlakatlarida SI texnologiyalari korxonalarning ishlab chiqarish, logistika hamda boshqaruv jarayonlariga keng integratsiya qilinib, ularning raqobatbardoshligini sezilarli darajada kuchaytirmoqda.

AQShda yirik ishlab chiqarish va logistika korporatsiyalari mashinali o'rganish hamda katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish (Big Data Analytics) asosida talab prognozlarini shakllantirish, yetkazib berish zanjirlarini optimallashtirish va texnik nosozliklarni oldindan aniqlash tizimlarini joriy etgan. Ushbu yondashuvlar ishlab chiqarishdagi rejalashtirilmagan to'xtalishlarni o'rtacha 18–25% ga kamaytirib, operatsion xarajatlarni 12–20% gacha optimallashtirish imkonini bergan.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida SI texnologiyalari Industry 4.0 konsepsiyasi doirasida rivojlanib, robotlashtirilgan ishlab chiqarish, aqlli sensorlar hamda real vaqt rejimidagi tahliliy platformalar orqali mahsulot sifati va ishlab chiqarish aniqligini oshirishga xizmat qilmoqda. Xususan, Germaniyaning avtomobilsozlik korxonalarida SI asosidagi sifat nazorati tizimlarining joriy etilishi nosoz mahsulotlar ulushini 30% gacha kamaytirish imkonini bergan.

Sharqiy Osiyo mamlakatlarida, jumladan Xitoy va Janubiy Koreyada, sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish strategik ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Natijada sanoat korxonalarida avtomatlashtirilgan qaror qabul qilish va prognozlash tizimlari keng joriy etilib, 2022–2024-yillar davomida yirik sanoat korxonalarida mehnat unumdorligi 20–28% ga oshgani kuzatilgan.

Qiyosiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish jarayoni izchil rivojlanib bormoqda. Ayni paytda SI texnologiyalari asosan bank-moliya, savdo va xizmatlar sohasida faol qo'llanilmoqda, sanoat korxonalarida esa ularning imkoniyatlarini yanada kengroq tatbiq etish istiqbollari mavjud. Shunga qaramay, kuzatilayotgan ijobiy natijalar sun'iy intellekt texnologiyalarini kengroq joriy etish orqali korxonalar samaradorligini oshirish va xalqaro raqobatbardoshlikni mustahkamlash uchun zarur shart-sharoitlar mavjudligini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot doirasida korxona faoliyatida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning nazariy asoslari, amaliy qo'llanilishi hamda iqtisodiy samaradorlikka ta'siri kompleks tarzda tahlil qilindi. Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt texnologiyalari bugungi kunda korxonalar raqobatbardoshligini mustahkamlash, operatsion xarajatlarni optimallashtirish, boshqaruv qarorlarining sifatini yaxshilash hamda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarini takomillashtirishda strategik ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, mashinali o'rganish, katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish (Big Data Analytics), intellektual avtomatlashtirish, chatbotlar hamda prognozlash modellari korxonalarning turli funksional bo'linmalarida keng qo'llanilmoqda.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan korxonalarda mehnat unumdorligi sezilarli darajada oshgan, inson omili bilan bog'liq xatoliklar kamaygan hamda resurslardan foydalanish samaradorligi yaxshilangan. Ayniqsa, moliyaviy rejalashtirish, marketing strategiyalarini ishlab chiqish, mijozlar bilan aloqalarni boshqarish hamda logistika jarayonlarida sun'iy intellekt asosidagi yechimlar yuqori iqtisodiy natijalarni ta'minlamoqda. Bu esa korxonalar faoliyatida raqamli transformatsiya jarayonlarining izchil jadallashuviga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, tadqiqot davomida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish jarayonida uchrashi mumkin bo'lgan ayrim tashkiliy va texnik omillar ham tahlil qilindi. Jumladan, dastlabki investitsiya xarajatlarning yuqoriligi, malakali kadrlar salohiyatini oshirish zarurati, ma'lumotlar sifati va xavfsizligi bilan bog'liq talablarning kuchayishi, shuningdek, axborot infratuzilmasini modernizatsiya qilish ehtiyoji sun'iy intellekt texnologiyalarini keng joriy etish jarayonida e'tiborga olinishi lozim. Biroq ushbu yo'nalishlarda tizimli yondashuv, davlat va xususiy sektor hamkorligi hamda innovatsion siyosatni takomillashtirish orqali barqaror natijalarga erishish mumkinligi aniqlandi.

Tahlil natijalari asosida xulosa qilish mumkinki, sun'iy intellekt texnologiyalari korxonalar faoliyatida nafaqat texnologik yangilik, balki strategik boshqaruv vositasi sifatida ham namoyon bo'lmoqda. Ular orqali korxonalar



bozor o'zgarishlariga moslashuvchan javob qaytarish, iste'molchilar ehtiyojlarini chuqur tahlil qilish va uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta'minlash imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Ayniqsa, rivojlanayotgan iqtisodiyot sharoitida faoliyat yuritayotgan korxonalar uchun sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish innovatsion rivojlanishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari sun'iy intellekt texnologiyalaridan oqilona va tizimli foydalanish korxona faoliyatining samaradorligini oshirish, raqamli iqtisodiyot sharoitida barqaror raqobat ustunliklarini shakllantirish hamda milliy iqtisodiyotning innovatsion salohiyatini kuchaytirishga xizmat qilishini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari va o'tkazilgan tahlillar asosida korxona faoliyatida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishni yanada takomillashtirish bo'yicha quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1. Sun'iy intellektni joriy etish bo'yicha strategik "yo'l xaritalari"ni ishlab chiqish. Korxonalarda SI texnologiyalarini tatbiq etish bo'yicha aniq strategik yo'nalishlar hamda bosqichma-bosqich joriy etish rejalarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Bunda SI yechimlari korxonaning umumiy rivojlanish strategiyasi bilan uzviy bog'langan bo'lishi zarur.

2. Ma'lumotlar bilan ishlash madaniyatini rivojlantirish. Sun'iy intellekt texnologiyalarining samaradorligi bevosita ma'lumotlarning sifati va tizimlashtirilganligiga bog'liq bo'lgani sababli, yagona ma'lumotlar bazalarini shakllantirish, ma'lumotlarni standartlashtirish hamda ularni real vaqt rejimida yangilab borish mexanizmlarini joriy etish tavsiya etiladi. Bu esa intellektual tizimlarning aniqligi va ishonchligini oshiradi.

3. Inson kapitalini rivojlantirishga ustuvor e'tibor qaratish. Korxonalarda sun'iy intellekt bilan ishlay oladigan mutaxassislarni tayyorlash, mavjud xodimlarning raqamli kompetensiyalarini oshirish hamda IT va biznes bo'linmalari o'rtasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish muhim. Bu borada muntazam treninglar, qayta tayyorlash dasturlari hamda ilmiy-amaliy seminarlarni tashkil etish maqsadga muvofiq.

4. Axborot xavfsizligi va etik me'yorlarga rioya etish tizimini kuchaytirish. Ma'lumotlar maxfiyligini ta'minlash, kiberxavfsizlik choralarini kuchaytirish hamda algoritmik qarorlar shaffofligini oshirish korxonalarda ishonch muhitini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, mijozlar ma'lumotlari bilan ishlashda xalqaro standartlarga mos mexanizmlarni joriy etish muhimdir.

5. Davlat va xususiy sektor hamkorligini kengaytirish. Sun'iy intellekt sohasida innovatsion loyihalarni moliyalashtirish, startaplarni qo'llab-quvvatlash, soliq va institutsional rag'batlantirish mexanizmlarini kuchaytirish orqali korxonalarning SI texnologiyalarini joriy etishga bo'lgan qiziqishini oshirish mumkin. Bu esa milliy iqtisodiyotda raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtiradi.

Ilgari surilgan takliflarni amaliyotga joriy etish korxona faoliyatida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini oshirish, innovatsion rivojlanishni ta'minlash hamda uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o'sishga erishish uchun muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sultanova N.X. Sun'iy intellekt va uning boshqaruv hisobiga ta'siri // Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. — Toshkent, 2024. URL: https://www.researchgate.net/publication/397242178_SUN%27IY_INTELLEKT_VA_UNING_BOSHQARUV_HISOBIGA_TA%27SIRI
2. Atajonova S.B. Sun'iy intellektning ishlab chiqarish korxonalarida qo'llanilishining afzalliklari // Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. — Andijon, 2023. URL: <https://scholar.google.com/>
3. Solijonova S.T. Sun'iy intellektning ishlab chiqarish korxonalarida qo'llanilishining afzalliklari // Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. — Andijon, 2023. URL: <https://scholar.google.com/>
4. Nasrulloev H. O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sishga erishishda sun'iy intellekt tizimlarini qo'llash metodologiyasini takomillashtirish // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. — 2025. URL: https://www.researchgate.net/publication/397270149_O%27ZBEKISTONDA_BARQAROR_IQTISODIY_O%27SISHGA_ERISHISHDA_SUN%27IY_INTELLEKT_TIZIMLARINI_QO%27LLASH_METODOLOGIYASINI_TAKOMILASHTIRISHIMPROVING_THE_METHODOLOGY_OF_APPLYING_ARTIFICIAL_INTELLIGENCE_SYSTEMS_TO_ACH
5. Kurpayanidi K.I. Raqamli iqtisodiyotning bugungi holati: muammo va yechimlar // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. — 2021. URL: <https://iqtisodiyot.tsue.uz/>
6. Ilyosov A.A. Raqamli iqtisodiyotning bugungi holati: muammo va yechimlar // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. — 2021. URL: <https://iqtisodiyot.tsue.uz/>
7. Abdusalomova N.B. Korxona resurslarini boshqarish tizimi (ERP) orqali buxgalteriya hisobini tashkil etish // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. — 2022. URL: <https://iqtisodiyot.tsue.uz/>
8. Rakhmonov N.R. Prospects for the development of Industrial 4.0 program in Uzbekistan (on the example of a leather shoe manufacturing enterprise) // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. — 2022. URL: <https://iqtisodiyot.tsue.uz/journal/index.php/iit/article/view/141>
9. Norimmetov M.X. Sanoat korxonalarini raqamlashtirish va sifat darajasini oshirish // Eurasian Journal of Academic Research. — 2025. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sanoat-korxonalarini-raqamlashtirish-va-sifat-darajasini-oshirish>
10. Tursunboyev Z.A. Sun'iy intellekt va uning iqtisodiyotga ta'siri // Лучшие интеллектуальные исследования. — 2024. URL: <https://scholar.google.com/>



11. Jalilova M. Sun'iy intellekt va uning kelajagi // "Yosh olimlar" ilmiy-amaliy konferensiyasi materiali. — 2024. URL: <https://scholar.google.com/>
12. Atajonov M.O. Dinamik ob'ektlarning texnologik holatlarini tashxislashning neyro-noqat'iy modellari va algoritmlari: monografiya. — Andijon: AndMI, 2023. URL: <https://scholar.google.com/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>